

ONA TILI DARSLARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Akmaldinova Feruza Inoqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22744235>

Qabul qilindi: 6-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 13-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-sentabr 2026-yil

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining bilimni tayyor holda o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, uni tahlil qilish, muayyan xulosaga kelish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’limning yuqori sinflarida o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki bu bosqichda o‘quvchilar murakkabroq mazmunni anglash, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, o‘z qarashlarini dalillar asosida ifodalash va mustaqil xulosa chiqarishga tayyorlanadi.

Ona tili darslari yuqori sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun keng metodik imkoniyatlarga ega. Til hodisalarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi kuzatish, qiyoslash, tahlil qilish, guruhlash, umumlashtirish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash kabi aqliy amallarni bajaradi. Shu jihatdan ona tili fanidagi topshiriqlarning mazmuni o‘quvchilarning yosh va intellektual rivojlanish darajasiga mos ravishda murakkablashtirib borilishi lozim. Yuqori sinflarda qo‘llaniladigan ayrim topshiriqlarning asosan qoidalarini eslab qolish, tayyor bilimlarni qayta tiklash yoki namunaga ko‘ra mashq bajarishga yo‘naltirilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli topshiriqlarni faqat bilimni nazorat qilish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchini izlanishga, muammoni aniqlashga, fikrini dalillashga va xulosa chiqarishga undovchi metodik vosita sifatida tashkil etish muhimdir.

Mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchidan bir necha bosqichli fikrlash faoliyatini talab qiladi. Xususan, til birliklarini taqqoslash, ularni muayyan belgilar asosida tasniflash, sabab va natijani aniqlash, muammoli vaziyatga yechim topish hamda berilgan ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish yuqori sinf o‘quvchilarining analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlarning izchil va maqsadli qo‘llanilishi ona tili bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish bilan birga, ularni yangi va nostandart vaziyatlarda qo‘llash imkonini ham kengaytiradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ona tili topshiriqlari tizimini takomillashtirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda samarali topshiriq turlarini tavsiflashdan iborat.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va metodika fanlarining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda mantiqiy fikrlash shaxsning ma’lumotlarni tahlil qilish, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, taqqoslash, umumlashtirish va asoslangan xulosaga kelish jarayoni sifatida izohlanadi. Ta’lim jarayonida ushbu faoliyatlarning izchil tashkil etilishi o‘quvchining nafaqat muayyan fan bo‘yicha bilimlarini, balki mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili ta’limi nuqtayi nazaridan mantiqiy fikrlash til hodisalarini anglash va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash bilan chambarchas bog‘liq. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun topshiriqlarni tanlashda ularning yosh xususiyatlari, mavjud bilimlari va mustaqil fikrlash darajasi hisobga olinishi lozim. Ayniqsa, bir nechta fikrlash amalini ketma-ket bajarishni talab qiladigan topshiriqlar o‘quvchining tahliliy faoliyatini faollashtiradi. Mavzuga oid tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, topshiriqlar tizimi o‘quv maqsadiga muvofiq tuzilganda ta’lim jarayonining

rivojlantiruvchi xususiyati kuchayadi. Bunda topshiriqlarni faqat reproduktiv xarakterda emas, balki produktiv va muammoli xarakterda ham tashkil etish muhimdir. Oddiy kuzatish va aniqlashdan boshlangan topshiriqlar bosqichma-bosqich tahlil, qiyoslash, dalillash va xulosa chiqarish darajasiga olib chiqilishi mumkin.

Yuqori sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni topshiriqlarning alohida-alohida qo'llanilishi bilan emas, balki ularning o'zaro bog'langan va ma'lum didaktik maqsadga yo'naltirilgan tizimi asosida tashkil etilishi bilan samarali kechadi. Shu sababli ona tili darslarida topshiriqlarni tanlashda faqat mavzuning mazmuni emas, balki o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan fikrlash amali ham asosiy mezon sifatida qaralishi zarur. Bunda topshiriqning har bir keyingi bosqichi avvalgi faoliyat natijasiga tayanib, o'quvchini yanada murakkab fikrlash jarayoniga olib borishi maqsadga muvofiq. Yuqori sinflarda topshiriqlar tizimini takomillashtirish, avvalo, reproduktiv xarakterdagi vazifalar ulushini kamaytirib, tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlarni izchil ko'paytirishni nazarda tutadi. Masalan, til hodisasini aniqlashga qaratilgan topshiriq keyingi bosqichda uni boshqa hodisa bilan taqqoslash, undan so'ng muayyan belgilar asosida tasniflash va yakunda o'quvchidan o'z xulosasini dalillashni talab qilishi mumkin. Bunday ketma-ketlik o'quvchining bilimni shunchaki qayta tiklashidan uni faol qayta ishlashiga o'tishini ta'minlaydi. Mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni mazmuniga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni taqqoslashga yo'naltirilgan topshiriqlar tashkil etadi. Bunday topshiriqlarda o'quvchidan ikki yoki undan ortiq til hodisasining umumiy va farqli belgilarini aniqlash talab qilinadi. Taqqoslash jarayonida o'quvchi obyektlarning muhim belgilarini ajratadi va ularni muayyan mezon asosida baholaydi. Natijada til hodisasini yuzaki emas, uning mazmuniy va funksional xususiyatlari asosida anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Ikkinchi guruh tasniflash va umumlashtirish topshiriqlarini qamrab oladi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchi berilgan til birliklarini muayyan belgilar asosida guruhlariga ajratadi va guruhlar uchun umumiy xususiyatlarni aniqlaydi. Masalan, so'zlarni ma'nosi, grammatik xususiyati yoki gapdagi vazifasiga ko'ra tasniflash orqali o'quvchi o'z qarorini muayyan mezon bilan asoslashga o'rganadi. Bu jarayonda tasnifning o'zi emas, balki "nima uchun aynan shu guruhga kiritildi?" degan savolning izohlanishi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Uchinchi guruhni sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar tashkil etadi. Ona tili darslarida bunday topshiriqlardan matn mazmunini tahlil qilish, gaplar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlash yoki muayyan til vositasining qo'llanish sababini izohlashda foydalanish mumkin. O'quvchi hodisaning faqat natijasini ko'rsatish bilan cheklanmay, unga olib kelgan sabablarni aniqlaydi va o'z fikrini dalillar bilan mustahkamlaydi. Shu jihatdan sabab-oqibatli topshiriqlar yuqori sinf o'quvchilarining izchil mulohaza yuritish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Keyingi muhim yo'nalish muammoli topshiriqlar bilan bog'liq. Muammoli topshiriqda o'quvchiga bevosita tayyor javob berilmaydi, balki muayyan qarama-qarshilik yoki savol asosida izlanish zarurati yuzaga keltiriladi. Masalan, bir xil grammatik shaklning turli nutqiy vaziyatlarda turlicha ma'no yoki vazifa kasb etishini tahlil qilish o'quvchini mavjud bilimlarini yangi vaziyatga tatbiq etishga undaydi. Bunda o'quvchi kuzatadi, taxmin ilgari suradi, uni misollar orqali tekshiradi va natijada asoslangan xulosaga keladi. Topshiriqlar tizimining yuqori bosqichida dalillash va xulosa chiqarishga yo'naltirilgan vazifalar muhim o'rin egallaydi. O'quvchining javobini "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb belgilashning o'zi uning mantiqiy fikrlash darajasini to'liq namoyon etmaydi. Shu sababli "Javobingizni izohlang", "Fikringizni misol bilan asoslang", "Qaysi dalil sizning xulosangizni tasdiqlaydi?" kabi topshiriq talablari kiritilishi lozim. Bunday yondashuv o'quvchini o'z fikrining mantiqiy asosini ko'rsatishga va fikrlar o'rtasidagi izchillikni saqlashga o'rgatadi.

Shunday qilib, yuqori sinflarda ona tili darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi o'quvchining kuzatish va anglash faoliyatidan tahliliy, muammoli hamda mustaqil xulosa chiqarish faoliyatiga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlashi lozim. Bunda topshiriqlarning murakkabligi o'quvchidan talab etiladigan fikrlash amallarining ko'lamini va o'zaro bog'liqligiga qarab belgilanadi. Dastlab til hodisasini aniqlash va uning belgilarini ajratishga yo'naltirilgan vazifalar berilib, keyingi bosqichlarda ularni qiyoslash, tasniflash va sababiy bog'lanishlarni aniqlashga doir topshiriqlar qo'llanadi. Yakuniy bosqichda esa o'quvchidan muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilish,

o'z qarashini dalillar asosida ifodalash va umumlashtirilgan xulosaga kelish talab etiladi. Bunday tizim o'quvchining tilga oid bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashini kuchaytirib, mantiqiy va izchil fikr yuritish ko'nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ona tili darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning bilimni ongli o'zlashtirishi va uni amaliy faoliyatda qo'llashida muhim ahamiyatga ega. Yuqori sinflarda topshiriqlarni tahlil, taqqoslash, tasniflash, sabab-oqibatni aniqlash, muammoli vaziyatni hal etish va xulosa chiqarishga yo'naltirish o'quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun topshiriqlarni izchil, maqsadli va murakkablik darajasi asosida tizimlashtirish ona tili ta'limining rivojlantiruvchi samaradorligini oshiruvchi muhim metodik shartlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Noshir, 2009. - 352 b.
2. Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Bayoz, 2022. - 304 b.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.